

XALQ AMALIY SAN'ATI TURLARIDAN BIRI -KASHTACHILIKNING RIVOJLANISH TARIXI

Nazirova Nafisa Uyg'unjon qizi, Suvonqulova Umida Murodqul qizi

A.Qodiriy nomidagi JDPI, Dizayn yo'nalishi 2-kurs talabalari,

Jizzax, O'zbekiston

e-mail:nazirovanafisa3@gmail.com

Ilmiy rahbar: Ortiqova O

Annotatsiya: Maqolada Xalq amaliy san'at turlaridan hisoblangan kashtachilikning rivojlanishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Amaliy bezak, Zafarnoma, Temur taxtda, taraqqiyot, hunarmandchilik, milliy qadriyatlar.

Аннотация: В статье рассматривается развитие вышивки как одного из видов народного декоративно-прикладного искусства.

Ключевые слова: Практическое украшение, Зафарнома, Тимур на престоле, развитие, ремесла, национальные ценности.

Resume: The article examines the development of embroidery as one of the types of folk arts and crafts.

Key words: Practical decoration, Zafarnoma, Temur on the throne, development, crafts, national values.

O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san'atini boy rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib qismini tashkil etadi. O'zbek diyorida vujudga kelgan amaliy bezak san'at asarlari bemisil va betakrorligi bilan butun jahonga mashhur va ma'lum. Bunday taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, o'zbek amaliy bezak san'atining shox ildizlari insoniyat bolaligi ya'ni ibtidoiy jamoa tuzimiga borib taqalishining guvohi bo'lamiz. O'zbek milliy kashtado'zligi xalq hunarmandchilik san'atining eng qadimiy turlaridan

bo`lib, u xalqning o`z turmushini go`zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashta kiyimlar va buyumlarni bezashda hamda ro`zg`or bezak buyumlari tayyorlashda qadimdan qo`llaniladi. XIV - XV asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko`rish mumkin. Ispan elchisi Rui Ganzalem de Klavixo Amir Temur saroyida o`zbek milliy kashta bezaklarini ko`rganini kundaligida yozib qoldirgan. Kamoliddin Behzod "Zafarnoma"ga ishlagan. "Temur taxtda" miniatyurasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirgan. O`zbek kashtachiligi qo`shni xalqlar kashtachiligi ta'sirida boyidi va rivojlandi. O`zbek kashtalariga e'tibor bersak, unda hind, xitoy, rus, qozoq, qirg`iz va tojik kashtachiliklarining usullarini uchratamiz. 1990-yillarning boshlarigacha bo`lgan davr mobaynida kashtachilik qishloq aholisining kundalik mashg`uloti sifatida saqlangan. O`zbekiston mustaqilligi e`lon qilingandan so`ng, u boshqa amaliy bezak bezak san`at turlari kabi bozor ishlab chiqarish turlariga kiritildi. Hozirda kashtachilik san`ati Buxoro, Samarqand, Toshkent, Urgut shaharlarida Surxandaryo, Qashqadaryo viloyatlarida hamda Qoraqalpog`iston Respublikasida hozirgacha rivojlanib kelmoqda. Ko`p asrlar mobaynida kashtachilikning yirik markazlari Buxoro sanalgan. Kashtachilik san'atida har bir millatning o`ziga xos eng ko`p qo`llaydigan naqshlari bo`ladi. O`zbek kashtalarida geometrik shakl hamda gul naqshlari ko`p qo`llaniladi. Qadimiy an'analarga ko`ra, o`zbek qizlari bo`lajak kelinchak seplari bo`lmish har xil kashtachilik buyumlarini ya'ni dastro`mol, choyxalta, parda, belbog`, sumka, nimcha, joynomoz, gulko`rpa, kirpich, zardevor, choyshab, so`zana, kiyim bezaklari va bosh kiyimlarini, sovg`alarni o`zlari tayyorlashgan. Bu orqali ular mehnatga bo`lgan munosabatlarini ko`rsatib estetik didga moneliklarini ifodalaganlar. O`rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo`lib, oilada kashta tikish bilan ayollar shug`ullanishgan. O`tmishda bu kashtalar oq va tabiiy malla shoyi, adras, hisoriga, baxmal matolarga tikilgan, keyinchalik satin, shoyi, baxmalga tikiladigan bo`ldi. Ish jarayonida ular o`z mahoratlarini oshirishgan, bir-biridan va kattalardan avlodlar tajribasini o`rganishgan. XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro etilishi kashtachilik korxonalarining

vujudga kelishiga asos soldi. Kashtado`zlikning yirik namoyandalaridan Andijondagi "Qizil bayroq" arteli rassom kashtado`zi X.Nazarov, Samarqanddagi "Xotin-qizlar mehnati" arteli kashtado`zi Usmon Shokirov, toshkentlik kashtado`z va chizmakash Xayri Sobirovalar kashta buyumlariga yangi turli xil naqsh kompozitsiya va tikish usullarini yaratdilar. X.Sobirova onasi Zaxira Mirxoliqovadan qo`lda, mashinada tikish sirlarini va chizmachilikni o`rgandi. X.Sobirova 15 yoshidan boshlab onasining kashtado`zlik hunarini davom ettirib, "Sharq guli" va "Ilg`or" nomli sobiq Ittifoq davridagi Stalin artelida 16 yil ishlab ko`p shogirdlar yetishtirishda o`z hissasini qo`shdi.

Yetishib chiqqan kashtachilar o`zining san'ati va tabiatiga ko`ra go`zallik haqidagi orzularini ifodalashga harakat qilganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O'zbekiston san'ati (1991-2001 yillar). O'zbekiston badiiy akademiyasi. San'atshunoslik ilmiy tadqiqot institute.85-86 bet.

2. <https://hozir.org/kashtachilik-sanati-tarixi.html>

3. <http://oyina.uz/kiril/teahause/99>

4.S.Bulatov.O'zbek xalq amaliy bezak san'ati.Toshkent -1991 yil.

5.M.Prisa.Toshkent Ganchkorligi. Badiiy adabiyotlar nashriyoti. 1960 yil.

6. S.Bulatov.O'zbekiston san'ati tarixi.Toshkent -1991yil.

7.T.Abdullayev XIX-XX asrlarda O'zbekiston kandakorlik san'ati. Toshkent-1994yil.

8.R.Xasanov Amaliy bezak san'ati metodikasi.Toshkent 2003-yil

9.Ortiqova, O. (2020). Мухандислик таълимида ишлаб чиқаришни бошқаришга оид масалалардан фойдаланиш. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

10.Ortiqova, O. (2021). AMALIY MASHG'ULOTLARNI ZAMON TALABI ASOSIDA TASHKIL QILISH. *Физико-технологического образования, 4(4)*.

11.Шарипов, Ш. С. (2017). Personality model of modern taecher. *Eastern european Scientific Journal–Germany, 93-96*.

12.Шарипова, Ш. С. (2018). Инновационные технологии в современном учебном процессе. *Молодой ученый, (9), 185-188*.

13. Шарипов, Ш. С. (2000). Педагогические условия формирования изобразительского творчества студентов (на примере факультетов Труда и профессионального образования)

14. Orishev, Jamshid (2021) "PROJECT FOR TRAINING PROFESSIONAL SKILLS FOR FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION," *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*: Vol. 2021 : Iss. 2 , Article 16.

15. Orishev, J. (2020). ГЛОБАЛАШУВ ДАВРИДА ПЕДАГОГЛИК МАСЪУЛИЯТИ . *Научно-просветительский журнал "Наставник"*, 1(1).

16. Ismailov T.J, Tagaev X, Kholmatov P.K, Yusupov K.Y, Alkarov K.Kh, Orishev Zh.B Karimov O.O. (2020). Cognitive-Psychological Diagram Of Processes Of Scientific And Technical Creativity Of Students. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(08), 3669-3677.

17. Оришев, Ж. Б. (2019). ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Интернаука*, (43-2), 70-72

18. Убайдуллаев, С., Оришев, Ж. Б., & Ортиқова, О. Ш. (2019). УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМДА" ДАРСЛАРДА ЭКОЛОГИК ТАНАФФУС" ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯСИГА АСОСЛАНГАН ЭЛЕКТРОН ҚЎЛЛАНМАЛАРНИ ЖОРИЙ ЭТИШ. *Интернаука*, (20-3), 62-63.